BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

POLVONOV FARRUX ISMOILOVICH

LANDSHAFT INTERFERENSIYASI SHAROITIDA OROL DENGIZI QURIGAN TUBI O‘SIMLIKLAR QOPLAMINING TUZILISHI VA DINAMIKASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘T 581.5:581.6 (575.13)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Polvonov Farrux Ismoilovich
Landshaft interferensiyasi sharoitida Orol dengizi qurigan tubi o‘simliklar qoplamining tuzilishi va dinamikasi……..…… 3

Полвонов Фаррух Исмоилович
Структура и динамика растительности осушенного дна Аральского моря в условиях ландшафтной интерференции…… 19

Polvonov Farrukh Ismoilovich
Structure and Dynamics of Vegetation on the Desiccated Bed of the Aral Sea under Conditions of Landscape Interference..... 37

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 40

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

POLVONOV FARRUX ISMOILOVICH

LANDSHAFT INTERFERENSIYASI SHAROITIDA OROL DENGIZI QURIGAN TUBI O‘SIMLIKLAR QOPLAMINING TUZILISHI VA DINAMIKASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/B1797 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Adilov Behzod Abdullayevich** biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Ebel Aleksandr Leonovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Tajetdinova Dilorom Mnajatdinovna biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «27» noyabr kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (91 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «10» noyabr kuni tarqatildi.

(2026 yil «10» noyabrdagi 30-raqamli reestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash Ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy Seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi va antropogen ta’sirning kuchayishi sharoitida arid hududlardagi tabiiy ekotizimlar transformatsiyasi muammolari dolzarblik kasb etmoqda. Turg‘unligi yo‘qolgan ekotizimlarni tiklash va ularni barqaror boshqarishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishda geomorfologik, gidrologik va edafik jarayonlar o‘zaro tutashgan sharoitda shakllanadigan o‘simlik qoplamining tuzilishi va dinamikasini anglash alohida ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, fitosenozlar mozaikligi va suksessiya trayektoriyalarining ko‘p variantliligini belgilaydigan landshaft interferensiyasi mexanizmlarini aniqlash o‘simlik qoplamining barqarorligini baholashda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida transformatsiyaga uchragan hududlardagi o‘simlik qoplamining holatini tahlil qilish va uning keyingi dinamikasini prognozlashda suksessiya jarayonlarining xarakteri va tabiiy muhit tuzilishidagi o‘zgarishlarini o‘zida aks ettiruvchi fitosenozlarning makon-vaqt uyushmalarida tashkil topishi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shunga ko‘ra, landshaft va gidroekologik sharoitlar keskin o‘zgargan hollarda shakllanadigan o‘simlik qoplamining tuzilishi va makon differensiatsiyasi xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Orol dengizining qurigan tubi (ODQT) cheklangan makonda qumli akkumulyativ yuzalar, sho‘rxok depressiyalar, qoldiq gidromorf uchastkalar hamda faol eol qayta ishlangan zonalar o‘zaro uyg‘unlashgan noyob neo-hududni ifodalaydi. Bunday kontrast tabiiy sharoitlar uyg‘unligi o‘simlik qoplamining mozaik tuzilishi va suksessiya trayektoriyalarining ko‘p variantliligini shakllantiradi. Shu jihatdan, landshaft interferensiyasi ta’siri ostida ODQT o‘simlik qoplami dinamikasi qonuniyatlarini aniqlash iqlimning qurg‘oqchillashuvi sharoitida ekotizimlar transformatsiyasi mexanizmlarini anglash hamda o‘simlik qoplamini muhofazalash va tiklashga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda respublikamizda iqlim o‘zgarishi va antropogen ta’sirning kuchayishi natijasida transformatsiyaga uchragan ekotizimlarni saqlash, tiklash va ulardan barqaror foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, yaylov resurslari holatini baholash, o‘rmonlarni tiklash tadbirlarini kengaytirish, shuningdek Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida[1] «… Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiatni muhofaza qilish sohasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish»ga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, ODQT o‘simlik qoplamining tuzilishi va dinamikasini o‘rganish, landshaft interferensiyasi mexanizmlarini aniqlash, shuningdek ekologik xatarlarni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son «Yangi O‘zbekistonni 2022–2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son «Yangi O‘zbekistonni 2022–2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» gi va 2023 yil 23 noyabrdagi PF–199-son «Respublikada ko‘kalamzorlashtirish darajasini yanada oshirish hamda umummilliy “Yashil makon” loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 18 yanvardagi 31-son «Orol dengizining qurigan tubida va Orolbo‘yi hududida “yashil qoplama” - himoya o‘rmonzorlarini barpo etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Orol dengizining qurigan tubi ilmiy adabiyotlarda (Wucherer, 1990; Wucherer & Breckle, 2001; Dimeeva, 2007; Gerasimov va boshq., 1983) birlamchi suksessiya va yangi ekotizimlar shakllanishining noyob model hududi sifatida qaraladi.

Alohida yetakchi abiotik omillar bo‘yicha keng qamrovli dalillar bazasi shakllantirilgan. Sho‘rlanish makon–vaqt mobaynida o‘zgaruvchan va qaytar xususiyatlarga ega suksessiya trayektoriyalarning dinamik regulyatori sifatida qaraladi (Zihao, 2024; Shrivastava & Valenzuela, 2022; Reza, 2024; Khasanov, 2023; Li, 2018; Shokri, 2024). Sho‘rlanish rejimi mikrorelef, gidrologik rejim va antropogen transformatsiyaning o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanib, o‘simlik qoplami rivojlanishining murakkab geoekologik ssenariylarini shakllantirishi (Allbed, 2013; Gamalero, 2020; Olff, 1997; Hou, 2022; Rupprecht, 2015; Wang, 2023; Liu, 2023; Pétillon, 2010) asoslangan. Tuproqlarning mexanik tarkibi substratning suv–havo rejimi, mahsuldorligi va o‘simlik jamoalarining suksessiya o‘zgarishlari yo‘nalishini belgilaydigan yetakchi omil sifatida talqin etiladi (Brady & Weil, 2008; Hillel, 2013; Breckle, 2002; Maun, 2009). Shuningdek, kapillyar namlanish, ikkilamchi sho‘rlanish va gidromorf komplekslar shakllanish sharoitlarini nazorat qilishda grunt suvlari tizimining roli alohida ta’kidlanadi (Walter & Breckle, 1991; Breckle, 2002; Breckle et al., 2012; Novikova, 1985; Dimeyeva, 2007; Chen et al., 2019; Hou, 2022; Li, 2018). Landshaft ekologiyasi doirasida makonning mozaikligi va fragmentatsiyasi suksessiyaning ko‘plab alternativ yo‘llarini shakllantirishi mumkinligi ko‘rsatilgan (Forman & Godron, 1986; Urban et al., 2007; Prach & Walker, 2011; Pulsford et al., 2016).

Shu bilan birga, ODQT o‘simlik qoplamiga oid mintaqaviy tadqiqotlarni suksessiya dinamikasidagi umumiy nazariy tasavvurlar bilan qiyoslashda muhim metodologik uzilish mavjudligini ko‘rsatadi. Floristik tarkib, jamoalar tipologiyasi va ayrim abiotik omillar rolining yetarli darajada o‘rganilganiga qaramasdan, geomorfologik, gidrologik va edafik jarayonlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi qanday tarzda o‘simlik qoplamining barqaror makon mozaikligini va o‘zaro kesishuvchi suksessiya domenlari tizimini shakllantirishi bo‘yicha ilmiy masala hanuzgacha o‘z yechimini topmagan.

Mazkur holat landshaft interferensiyasini ODQT o‘simlik qoplamini tashkil etishdagi mustaqil tizim hosil qiluvchi mexanizm sifatida ko‘rib chiqishning dolzarbligini belgilaydi hamda alohida «suksessiya qatorlar»ni tavsiflashdan voz kechib, klassifikatsiyali, ordinatsiyali va landshaft-metrik yondashuvlarini integratsiyalash asosida makon uyushmalari va uning dinamikasini tahlil etishga o‘tish zarurligini asoslab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining «Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘simliklar qoplami va yaylov resurslarining hozirgi holatini baholash» (2020–2024) hamda «Raqamli tabiat» (2025–2029) mavzularidagi davlat dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orol dengizi qurigan tubida o‘simlik qoplamining shakllanishi va makon uyushmalarini tashkil topishida landshaft interferensiyasining ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

ODQT landshaft tuzilmalarining ko‘p yillik dinamikasini o‘rganish, ularning fragmentatsiya darajasi va landshaft interferensiyasi jarayonlarining intensivligini aniqlash;

ODQT o‘simlik jamoalarining floristik-tuzilmaviy tasnifini amalga oshirish, diagnostik o‘simlik bloklarini ajratish hamda ularning ekologik mazmuni va suksessiya seriyalaridagi o‘rnini aniqlash;

ordinatsiya tahlili asosida yetakchi ekologik gradientlarni aniqlash va noliniyali, ko‘p vektorli suksessiya jarayonlarini baholash;

ODQT tarixiy va zamonaviy o‘simlik qoplamining rivojlanishi hamda makonda o‘zgarishini belgilaydigan asosiy abiotik omillarni aniqlash;

ODQTda landshaft interferensiyasining ekotizim turlarini shakllantirish va ularning suksessiya almashinuvlariga ta’sirini baholash.

Tadqiqot obyekti Orol dengizining qurigan tubi landshaftlari va fitosenozlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti o‘simlik qoplamining landshaft va tuzilish-floristik uyushmalari, shuningdek fitosenozlarning suksessiyali rivojlanish mexanizmlari va ekologik gradientlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada dala, geobotanik, fitosenotik, ordinatsiya, xaritalash hamda statistik usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oltita diagnostik o‘simlik blokini o‘z ichiga olgan, abiotik sharoitlarning turli kombinatsiyalari va landshaft interferensiyasi darajalarini aks ettiruvchi ODQT o‘simlik qoplamining zamonaviy tuzilish-floristik tasnifi ishlab chiqilgan;

fitosenozlarning makon uyushmalarini belgilaydigan yetakchi ekologik gradientlar aniqlangan hamda o‘simlik qoplamining zamonaviy tuzilishini belgilaydigan uch qutbli suksessiya yo‘nalishlar tizimi ochib berilgan;

ODQTda o‘simliklarning kolonizatsiya jarayonlari va turli ekotizim tiplarining shakllanishida edafik omil gradientlarining ahamiyati va dinamikasi aniqlangan;

ekoton domenlarini shakllantirib, yuqori floristik xilma-xillik va suksessiya yo‘nalishlari divergentligini ta’minlaydigan landshaft interferensiyasining eng intensiv

zonalari asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fitosenozlarning beqaror (efemer, yalang ekotizimlar), nisbatan tartiblangan (neoekotizimlar) va barqaror (postekotizimlar) holatlarini tavsiflaydigan besh turdagi ekotizimlar ajratilgan va xaritalashtirilgan;

gipsofit, galofit, psammofit va to‘qay tabiiy-hududiy majmualarida tarqalgan, 36 oila, 131 turkum va 253 turni o‘z ichiga olgan ODQT floristik tarkibning raqamli ma’lumotlar bazasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar qo‘llanilishi asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlar bilan muvofiqligi, aniqlangan qonuniyat va olingan xulosalarni yetakchi ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi, shuningdek vakolatli davlat va xalqaro tuzilmalar tomonidan amaliy natijalarning tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘simlik qoplamining shakllanishida makon fragmentatsiya va landshaft metrikalar dinamikasi rolining aniqlanganligi, landshaft interferensiyasining o‘simlik qoplami uyushmalarini hosil qiluvchi mexanizm sifatida asoslanganligi, kesishuvchi edafik jarayonlar ta’sirida fitosenozlar rivojlanish qonuniyatlarining ochib berilganligi, shuningdek ekologik domenlar va ekoton zonalar kontseptsiyasini suksessiya dinamikasining yetakchi makon tugunlari sifatida rivojlantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘rmon barpo etish uchun optimal uchastkalarni tanlash, qayta sho‘rlanish xavfini baholash va o‘simlik jamoalari holatini uzoq muddatli nazorat qilishga imkon beradigan monitoring va hududiy tiklash dasturlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Landshaft interferensiyasi sharoitida ODQT o‘simlik qoplamining tuzilishi va dinamikasini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

landshaft metrikalari tizimini qo‘llash va o‘simlik bloklarini integratsiyalash asosida «Orol dengizi qurigan tubi yaylovlari xaritasi» ishlanmasi uchun patent olindi (Intellektual mulk agentligi, SAP 02340-sonli patent, 2022 yil 9 mart). Natijada, 7 sinf, 12 guruh, 18 tip va 81 ta yaylov xillarini o‘z ichiga olgan ODQT yaylovlarining tasnifini ishlab chiqish va 3 183 564 gektar maydonini qamrab olgan raqamli kartografik inventarizatsiyasini amalga oshirish imkonini bergan.

gipsofit, galofit, psammofit va to‘qay tabiiy-hududiy majmualarida tarqalgan, 36 oila, 131 turkum va 253 turni o‘z ichiga olgan ODQT floristik tarkibning raqamli ma’lumotlar bazasi Global Index of Vegetation-Plot Databases xalqaro portaliga integratsiya qilingan (GIVD, № AS-UZ-003, https://www.givd.info). Natijada, suksessiya jarayonlarini rekonstruktsiya qilish va degradatsiyaga uchragan ekotizimlar bo‘yicha raqamli global kontentni shakllantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish nashr etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 99 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob’ekti va predmeti keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Orol dengizi qurigan tubi (ODQT) o‘simliklar qoplami tarixiy-dinamik aspektlarda: muammolar va ularni hal etishdagi yondashuvlari»,** deb nomlangan birinchi bobi ODQT o‘simlik qoplamining suksessiya dinamikasi, asosiy edafik va gidrogeomorfologik omillarning roli, shuningdek fitosenozlar tuzilishi va rivojlanishini talqin etishda landshaft interferensiyasini inobatga olish zaruratini asoslashga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqot hududi. Materiallar va usullar»,** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda qo‘llanilgan materiallar va usullar batafsil bayon etilgan, shuningdek o‘rganilgan hududning fizik-geografik tavsifi keltirilgan.


Dissertatsiyaning **«ODQT o‘simlik qoplamining landshaft-floristik tuzilmasi»,** deb nomlangan uchinchi bobida landshaft o‘lchamlarining ko‘p yillik dinamikasi tahlil qilingan, asosiy ekologik gradientlar bo‘yicha fitosenozlar tuzilishi aniqlangan hamda ularning ordinatsiya talqini amalga oshirilgan.

1980–2030 yy. oralig‘i uchun LI, DIVISION va NP indekslari asosida ODQT landshaftlari tarixiy-zamonaviy shakllanishining tahlili shuni ko‘rsatdiki, landshaftlarning rivojlanishi fragmentatsiya, mozaiklik va ular tuzilishining asinxron qayta shakllanishi bilan belgilangan kuchli fazoviy nomutanosiblik sharoitida amalga oshgan. Landshaft interferensiyasi indeksi (LI) tahlili dengiz qurishining ilk bosqichlaridagi yuqori (0.6) buzilganlikning lokal o‘choqlaridan, prognoz davrida (2022–2030 yy.) interferensiyaning keng va fazoviy jadal (0.9) kechganligini ko‘rsatdi, bu esa tabiiy komplekslar fragmentatsiyasining ortib borayotganligini aks ettiradi. Landshaftlarning bunday destabilizatsiyasi ODQT o‘simlik qoplamining ham tarixiy, ham zamonaviy davrlarda noodatiy, noliniyali shakllanish xarakteriga ega bo‘lganligini anglatadi.

Shu asosda floristik tuzilmani baholash, jamoalarning diagnostik bloklarini ajratish hamda ularning ekologik tarkibi va suksessiya qatorlaridagi o‘rnini aniqlash maqsadida o‘simlik jamoalarining eko-edafik qatorlarga mansubligi hisobga olingan holda binar tasniflash (TWINSPAN) amalga oshirildi.

ODQT o‘simlik qoplamining tasnifi tuzilmasida shakllanishi, bir tomondan, namlik va sho‘rlanish gradientlari, ikkinchi tomondan esa tuproqning mexanik tarkibi

hamda qumlarning mustahkamlik darajasi gradientining uyg‘un ta’siri ostida amalga oshadigan jami oltita jamoa bloklari ajratildi (1-rasm).



1-rasm. Asosiy suksessiya trayektoriyalari hamda ekologik gradientlarning interpretatsiyasi asosidagi ODQT o‘simlik jamoalarining ierarxiya tasnifi:

ekologik qatorlar

- galofit
- gipsofit
- potamofit
- psammofit
- psammo-potamofit
- galo-gipsofit
- galo-potamofit
- galo-psammofit
- gipso-psammofit
- galo-gipso-psammofit
- gipso-psammofit
- potamo-psammo-galofit
- potamo-galofit
- potamo-psammofit
- psammo-galofit
- psammo-gipsofit
- galo-psammo-potamofit

Bunda o‘simlik qoplamining tuzilishi loyli-sho‘rxok pastqamliklar spektriga mos keladigan ekstremal bir yillik galofit jamoalarining ustunligi (*Salicornia persica*; **VI blok**), bundan tashqari, o‘ta nam gidromorf sharoitlardan arid avtomorf tuproqlargacha bo‘lgan kontinuumni aks ettiradigan qirg‘oq-to‘qay fitosenozlaridan (*Phragmites australis*) to cho‘l komplekslarigacha (*Haloxylon ammodendron*; **I–V bloklar**) izchil o‘tish spektrini o‘z ichiga oladi.

O‘simlik qoplami tuzilishida “Vozrojdenie” oroli platformasiga o‘rnashgan, Shimoliy Turonning gipsli qumli-qumloq kulrang-qo‘ng‘ir tuproqlariga xos bo‘lgan relikt fragmentlarni ifodalaydigan quyrovuqli-shuvoqzor (*Artemisia terrae-albae*, *Caroxylon orientale*) jamoalarining **(I blok)** alohida o‘rnini ta’kidlash lozim

(1-rasm). Yuqoridagi turlardan tashqari, ushbu blokning indikatorlari sifatida *Anabasis salsa* va *Haloxylon ammodendron* bilan birgalikda bir yillik efemerlar (*Ranunculus falcatus, Fritillaria karelini*) va kserofitlar (*Ceratocarpus arenarius*) fraktsiyasi ham ishtirok etadi. Blok tuzilmasi saksovulzor va saksovulli–shuvoqzorlardan tortib shuvoqli–quyrovuqzor komplekslargacha bo‘lgan jamoalar differensiatsiyasini aks ettiradi. Ayrim efemer indikator turlarning (*Ranunculus falcatus*) mavjudligi tuproq yuzasining antropogen buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘simlik qoplamining lokal transformatsiyaga ishora qiladi.

Artemisia terrae-albae ishtirokidagi diagnostik ajralishda **II blok,** kelib chiqishi karbonatli-gipsli bo‘lgan orolli (“Vozrojdeniya” oroli) va shleyfli (“Lazerov” oroli) landshaftlarning delyuvial yonbag‘irlari hamda mikropastqamliklarida ko‘proq tarqalgan efemerli-psammofit jamoalar (*Ephemeretum*) bilan ifodalanadi (1-rasm). Indikatorlar kompleksi *Amberboa turanica*, *Arnebia decumbens*, *Eremopyrum orientale*, *Centaurea pulchella* va *Senecio subdentatus* kabi bir yillik psammo-efemerlardan tashkil topib, ular beqaror substratlarga xos bo‘lgan psammofit efemerli-boshoqzor komplekslarni belgilaydi. Shuningdek, blok delyuvial yonbag‘irlar va akkumulyativ yuzalarda shakllangan *Eremopyrum orientale+Climacoptera lanata* kombinatsiyasi bilan ifodalanadigan sho‘rakli-efemerli-boshoqzor jamoalarni ham o‘z ichiga oladi. Galofit butalarning mavjud emasligi mazkur fitosenozlarning ekoton holatini aks ettiradi.

Tamarix ramosissima + *Phragmites australis* diagnostik kompleksi **III–V bloklarni** tasnifning yagona gidromorf shoxobchasiga birlashtirib, bu suksessiyaning cho‘l avtomorf konturidan tashqariga chiqqanini hamda o‘simlik qoplamining qirg‘oq-to‘qay va botqoq trayektoriyasi bo‘yicha rivojlanishini aks ettiradi. Ushbu shoxobcha doirasida jamoalar differensiatsiyasini namlik va sho‘rlanish darajalari belgilab beradi (1-rasm).

Butali–saksovulli jamoalar **(III blok)** barqaror qumloq va qumli akkumulyativ yuzalarda tarqalgan hamda o‘simlik qoplamining floristik eng zich komponentini ifodalaydi (1-rasm). Suksessiya jihatidan ular psammoseriya bo‘g‘iniga mos kelib, mintaqa zamonaviy qumli ekotizimlarining asosiy karkasini shakllantiradi. Ushbu jamoalarning floristik yadrosini barqaror qumli substratlar indikatorlari bo‘lgan *Haloxylon ammodendron*, *Calligonum microcarpum*, *C.aphyllum*, *Xylosalsola richteri*, *Ephedra distachya*, *Astragalus villosissimus* va *Stipagrostis karelinii* tashkil etadi. Ekologo-dinamik xususiyatlari bo‘yicha III-blokning o‘simlik qoplami kvaziklimaks holatiga mos kelishiga qaramay, uning ichki tuzilishi qumli massivlarning galofitlashishi bilan aloqador bo‘lgan suksessiyaning noliniyali xarakteriga ishora qiladi. Bu jarayonlar *Nitraria schoberi, Atriplex fominii*, *Caroxylon nitrarium* va *Climacoptera lanata* ishtirokidagi oraliq ostbloklarning shakllanishi tufayli, galoseriya bosqichini o‘zida aks ettirishi ma’lum bo‘ldi. Mazkur jamoalarning mavjudligi alternativ suksessiya holatlarning mavjudligi hamda landshaft interferensiyasi sharoitida psammofit va galofit domenlari chegarasida ekoton fitosenozlarning shakllanishidan dalolat beradi.


Tamarix ramosissima+Phragmites australis diagnostik kompleksi doirasida yetuk sho‘rxok fitosenozlarni birlashtiruvchi, galoseriyaning buta bosqichiga mos keluvchi qoldiq-ko‘rfaz sho‘rxoklariga xos bo‘lgan galofit buta jamoalari

(IV blok) alohida o‘rin tutadi (1-rasm). Mazkur blok o‘simliklar qoplami, bir tomondan, sobiq dengiz ko‘rfazining avtomorf–gidromorf sho‘rxok komplekslariga, ikkinchi tomondan esa tekis nam-qirg‘oq yuzalariga barqaror o‘rnashganligi bilan farqlanadi. Fitosenoz yadrosini blok ierarxiyasida to‘qay–gidromorf elementlariga (*Tamarix ramosissima, T.hispida, Phragmites australis*) qarshi joylashgan *Halocnemum strobilaceum, Halostachys caspica, Kalidium caspicum, K.foliatum* va *Caroxylon nitrarium* ishtirokidagi supergalofit buta jamoalari tashkil etib, bu holat yuqori sho‘rlanish va kuchli gidrologik differensiatsiya sharoitida, intensiv landshaft interferensiyasi zonalarida shakllanadigan galoseriyaning so‘nggi bosqichlariga mos keladi.

Qirg‘oq–suv va to‘qay–o‘tloq o‘simlik komplekslari **(V blok)** barqaror yoki davriy ortiqcha namlanish sharoitida shakllanadigan potomoseriya fitosenozlarini birlashtiradi (1-rasm). Ushbu blok qoldiq gidrologik sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan gidromorf, yarim-gidromorf hamda o‘tloq–to‘qay jamoalari ustunlik qiladigan yagona blok hisoblanadi. Blokning indikator kompleksi *Phragmites australis, Typha angustifolia, Tamarix ramosissima, T.hispida, Karelinia caspia, Aeluropus littoralis, Polygonum aviculare* va *Sphaerophysa salsula* lar bilan ifodalanib, qamishli-qo‘g‘ali, yulg‘unli hamda sho‘rxok-o‘tloqi jamoalaridan tashkil topgan. *Phragmites australis* va *Typha angustifolia* ustunlik qilgan uchastkalar barqaror namlanish zonalariga mos kelsa, *Tamarix* hamda o‘tloqi turlarning ishtiroki ikkilamchi to‘qay va o‘tish ekoton komplekslarini belgilaydi.

Diagnostik kompleksning birinchi darajasida loyli-sho‘rxokli pastqamliklar spektri bilan ifodalanadigan va ekstremal bir yillik galofit jamoalarni **(VI blok)** shakllantiradigan o‘ta ixtisoslashgan o‘ng tomonli domen alohida ajraladi (1-rasm). Ushbu fitosenozlar galoseriyaning boshlang‘ich bosqichini ifodalab, ular yosh, loyli va zaif substratlarga o‘rnashgan, kuchli sho‘rlanish, davriy suv bosish hamda turg‘un nam sharoitiga ega bo‘lgan mikropastqamliklarda rivojlanadigan jamoalarni birlashtiradi. Bu yerda o‘simlik qoplami nihoyatda siyrak va deyarli monodominant bo‘lib, asosan *Salicornia persica* va *Suaeda heterophylla* kabi bir yillik galofitlar bilan ifodalanadi. Bu holat ko‘p yillik galofitlarning o‘rnashish imkoniyati mavjud bo‘lmagan, suksessiyaning ilk va fiziologik cheklangan bosqichini aks ettiradi.

ODQT fitosenozlarining ordinatsiya tahlili o‘simlik qoplamining fazoviy va ekologik tuzilmasini aniqlash, shuningdek suksessiya jarayonlarining yo‘nalishi va xarakteriga ta’sir etuvchi yetakchi omillarni belgilash imkonini berdi (2-rasm). Birinchi ordinatsiya o‘qi (CA1) avtomorf qumli va qumloq substratlardan zich loyli-gilli hamda yuqori minerallashgan sho‘rxoklargacha bo‘lgan asosiy suksessiya gradientini aks ettirishi hamda ODQT o‘simlik qoplamining transformatsiyasidagi bosh vektorni belgilashi aniqlandi. Ikkinchi o‘q (CA2) esa namlanish hamda grunt suvlarining chuqurligi gradienti doirasida gidromorf, o‘tish va avtomorfli ekotizim tiplarini belgilaydi. Ordinatsiya makonida TWINSPAN-bloklarning fazoviy joylashuvi psammoseriya, galoseriya va potomoseriya parallel ravishda rivojlanadigan va fazoviy o‘zaro bir-birini qoplaydigan ko‘rinishdagi suksessiyaning noliniyali va ko‘pvektorli xarakteriga dalolat qiladi. Olingan natijalar landshaft interferensiyasining ODQTda o‘simlik qoplamining mozaik tuzilishi va alternativ suksessiya trayektoriyalarining ko‘p shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqladi.



2-rasm. Asosiy ekologik gradientlar va jamoalar klasterlari aks etgan ODQT o‘simlik qoplamining ordinatsiyasi: yo‘nalish belgilari va matnli izohlar ordinatsiya makoniga mos keluvchi TWINSPAN-bloklarining joylashuvini ko‘rsatadi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Orolqumning floristik komplekslari liniyali va bir xil suksessiya qatorlarini shakllantirmaydi, balki relef, tuproq va gidrologik sharoitlarning turli kombinatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘zaro qoplovchi biogeotsenotik domenlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Landshaft interferensiyasi hodisasi yaqqol tarzda psammo-galofit va buta-galofit komplekslarida **(III, IV bloklar)** namoyon bo‘ladi. Psammofit jamoalarga mansub, deb hisoblangan III blok doirasida impulsli sho‘rlanish jarayoni, beqaror suv rejimi hamda o‘tish xususiyatiga ega subpsammofit sharoitlarning shakllanishini aks ettiradigan galofitlashuvning aniq tendentsiyasi qayd etildi. Mazkur holat psammoseriya va galoseriyaning parallel rivojlanishi, shuningdek ular o‘rtasidagi chegaralarning o‘ta harakatchan ekanligini ko‘rsatadi.

IV blok qoldiq gidromorf sharoitlarda shakllanadigan dengiz ko‘rfazi sho‘rxoklaridagi galofit buta jamoalarining ustunligi bilan tavsiflanadi. Grunt suvlarining davriy ko‘tarilishi, sho‘rlanish va yuvilish jarayonlarining almashinib turishi, shuningdek to‘qay elementlarining mavjudligi barqaror klimaks holatining yo‘qligini hamda ushbu fitosenozlarning o‘tish, interferensiyali xarakterini tasdiqlaydi.

Ordinatsiya tahlili (CA) natijalari psammoseriya, galoseriya va potomoseriya izchil ketma-ket zanjirni emas, balki o‘zaro birlashib ketgan jarayonlardan iborat uch qutbli tizimni shakllantirishini tasdiqladi.

Shu tariqa, ODQTdagi o‘simlik qoplamining suksessiyasi landshaft interferensiyasi ta’sirida shakllanadigan parallel va alternativ trayektoriyalardan iborat noliniyali tarmoq sifatida namoyon bo‘ladi. Orolqumning zamonaviy o‘simlik qoplami o‘tish va tugallanmagan holatlarning barqaror mavjudligi bilan tavsiflanib, an’anaviy liniyali suksessiya modellaridan tubdan farq qiluvchi neoekotizimlar ansamblini shakllantiradi.

Dissertatsiyaning **«Landshaft interferensiyasi sharoitida o‘simlik qoplamining tuzilish-funktsiyali uyushmasi va uning ekologik determinantlari»,** deb nomlangan to‘rtinchi bobida landshaftlarning fazoviy notekis sharoitida suksessiya

jarayonlarini belgilab beruvchi asosiy ekologik determinantlar tahlil qilingan.

Ko‘p yillik geobotanik ma’lumotlar asosida ODQT hududida besh xil ekotizimlarni (efemer, neoekotizimlar, yalang ekotizimlar, qoldiq ekotizimlar va postekotizimlar) shakllantiradigan 30 ta dominant turlar aniqlandi. Ushbu ekotizim turlari uchun floristik o‘xshashlikning past darajasi xos bo‘lib (Syorensen indeksi 0–54.1%), bu suksessiya jarayonlarining chiziqli ketma-ketlikka ega emasligini statistik jihatdan tasdiqlaydi hamda o‘simlik qoplamining mozaik-ekotonal tashkil topganligini ko‘rsatadi. Eng katta floristik farq efemer va postekotizimlar (9.1%), eng yuqorisi esa qisman qoplash bilan neo- va postekotizimlar o‘rtasida (54.1%) kuzatildi. Efemer, qoldiq va yalang ekotizimlari o‘rtasidagi fitotsenotik farqlar chiziqli xarakterga ega emasligi va yagona yo‘nalgan suksessiya qatorini shakllantirmasligi aniqlandi.

30 ta dominant turning klaster tahlili va ranjirlash asosida 65 ta ekotop sinfini qamrab oladigan dominantligining ekologik shkalasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, efemer va postekotizim dominantlari tor ekologik amplituda bilan xarakterlanadi, neoekotizim turlari esa yuqori ekologik plastiklikka ega bo‘lib, turli suksessiya seriyalari va ekotizimlarida keng ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi.

14 ta tuproq gradatsiyasi asosida amalga oshirilgan korrelyatsiya tahlili tuproqning mexanik tarkibi o‘simlik qoplami ko‘rsatkichlari bilan eng barqaror va statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlikka ega ekanini ko‘rsatdi ($\rho = 0.62–0.74$; $p<0.05$). Shu bilan birga, tuproqning sho‘rlanish darajasi xilma-xillikni cheklovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi, jumladan, yuqori sho‘rlangan tuproqlarda Shennon indeksi qiymatlari minimal bo‘lib ($H'\approx0.5–0.9$), past va o‘rtacha sho‘rlanish sharoitida esa xilma-xillikning nisbatan yuqori darajalari qayd etildi ($H'\approx1.8–2.3$; $p<0.05$). O‘simlik qoplami parametrlarining grunt suvlari sathi chuqurligiga bog‘liqligi noliniyali xarakter va optimum shaklida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Chunonchi, o‘simlik qoplami faolligi va turlar xilma-xilligining eng yuqori qiymatlari grunt suvlari sathi 1.0–1.5 m bo‘lgan holatlarda qayd etilib, og‘ish qiymatlari ushbu ko‘rsatkichning statistik jihatdan ishonchli pasayishini ($p<0.05$) tasdiqladi. Bu holat ham ortiqcha namlanish, ham substratning ortiqcha aeratsiyasi cheklovchi omillar ekanini anglatadi (jadval).


Bir xil harfli belgilar bilan ifodalangan ma’lumotlar $p< 0.05$ darajasida statistik jihatdan farq qilmaydi. MC^1 – tuproqlardagi fizik loyning foiz miqdori (mexanik tarkib); SS^2 – 0–20 sm gorizontdagi tuzlarning o‘rtacha og‘irlik bo‘yicha foizi; GL^3 – grunt suvlari sathi (metr). Turli harfli belgilar bilan ifodalangan ma’lumotlar darajasida statistik jihatdan ($p< 0.05$) farq qilmaydi. *MA(Fg)* – tuproq gradatsiyalari doirasida o‘simlik qoplamining o‘rtacha faolligi (M±SD); *RA(Fg)* – turlarning nisbiy faolligi (*M*±*SD*) va uning median qiymati (*Md*); *H′* – Shennon–Viner indeksi (M_I±*SD*) hamda tuproq gradatsiyalari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari (ρ).

Kanonik moslik tahlili (CCA) va bosqichli regressiya natijalari shuni ko‘rsatdiki (3-rasm), tahlil qilingan 14 ta tuproq gradatsiyasidan sakkiztasi o‘simlik qoplamining shakllanishiga statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Kanonik o‘zgaruvchilar dispersiyasini tushuntirishda eng katta hissa grunt suvlarining sathi (GL1, GL5, GL2) hamda tuproqlarning mexanik tarkibi (MC4, MC1) gradatsiyalariga to‘g‘ri kelib, bunda tuzatilgan determinatsiya koeffitsienti R^2 adj = 0.261 gacha ortib bordi ($p < 0.001$). Qo‘shimcha, lekin statistik jihatdan ahamiyatli ravishda ($p < 0.05$) tuproqning sho‘rlanish (SS3) va grunt suvlarining oraliq sathi (GL3) gradatsiyalari muhim omillar ekanligi aniqlandi.

Jadval

Tuproq gradatsiyalarining variabelligi va o‘simlik qoplami ko‘rsatkichlari

Tuproq omili ko‘rsatkichlari				***MA(Fg)***	***RA(Fg)***		***H´***	
omillar	gradatsiya	gradient	*M±SD*	*M±SD*	*M±SD*	*Md*	M_I*±SD*	*ρ*
MC[1]	MC1	>45	54.1±5.4	60.3±43.5	14.7±19.6	8.0	0.9±0.4	0.54
	MC2	20-45	29.2±6.1	115.5±86.5	18.4±16.2	14.0	1.2±0.7	0.64
	MC3	10-20	15.2±2.2	169.4±134.5	22.2±20.5	15.0	1.2±0.8	0.69
	MC4	<10	4.9±1.9	261.7±178.8	32.1±24.9	24.0	1.4±0.8	0.73
SS[2]	SS1[a]	0.2-4.0	1.9±1.2	206.5±129.6	20.8±18.7	15.0	1.8±0.5	0.68
	SS2	4.0-7.0	5.4±1.1	94.7±71.9	19.2±20.2	12.0	0.9±0.6	0.59
	SS3	>7.0	11.4±2.4	43.9±37.7	17.7±24.1	5.5	0.5±0.3	0.61
	SS4	<1	0.7±0.3	497.7±108.7	32.8±23.9	25.0	2.3±0.4	0.87
	SS5[a]	1.0-4.0	2.6±1.3	352.3±124.3	34.4±24.9	24.0	2.0±0.4	0.81
GL[3]	GL1[b]	<1.0	0.3±0.3	103.7±39.0	23.1±21.5	15.5	0.8±0.4	0.59
	GL2[b]	1.0-1.5	1.1±0.2	279.0±143.0	26.7±23.4	15.5	1.6±0.6	0.71
	GL3	1.5-2.0	1.9±0.1	195.8±154.4	23.2±21.3	15.0	1.4±0.8	0.65
	GL4	2.0-3.0	2.8±0.4	135.3±127.6	21.2±20.8	15.0	1.0±0.8	0.61
	GL5	>3.0	4.0±0.4	124.0±120.3	24.1±24.5	15.0	1.0±0.7	0.61



3-rasm. Statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiyaga ega bo‘lgan tuproq omillari ($p < 0.05$) va ekotizim xillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ifodalovchi kanonik moslik tahlili (CCA)

CCA ordinatsiya tuzilmasi ekotizimlarni ekologik gradientlar bo‘ylab aniq differensiatsiyasini ochib berdi (3-rasm). Unga ko‘ra, efemer ekotizimlar (EE) grunt suvlarining eng kam chuqurligi (GL1; $p<0.05$) bilan statistik jihatdan ishonchli bog‘liq bo‘lib, bu gidromorf sho‘rxokliklar sharoitida erta suksessiya bosqichidagi fitosenozlarning shakllanishini aks ettiradi. Postekotizimlar (PE), aksincha, mexanik

tarkibi yengil bo‘lgan substratlar (MC4) va grunt suvlarining nisbatan chuqur joylashgan sathlari (GL3–GL5) bilan bog‘langan bo‘lib, bu yuqori suv o‘tkazish sig‘imiga ega qumli tuproqlardagi kech suksessiya bosqichlariga xos holatni ifodalaydi.

Neoekotizimlar (NE) va qoldiq ekotizimlar (RE) ordinatsion makonda oraliq o‘rinni egallaydi va tuproq omillari bilan bog‘liqlikning yuqori variabelligi bilan tavsiflanib, ularning ekotonal xususiyati va tur tarkibining dinamikligini ko‘rsatdi. Yalang ekotizimlari (WE) esa tahlil qilingan tuproq gradatsiyalari bilan statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiya namoyon etmadi ($p>0.05$) va ushbu ekotizimning shakllanishi stoxastik va qoldiq xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Gradientli busting modeli asosida yuqori tushuntirishga ega (MSE=49.64; R^2=0.72) o‘simlik qoplami kolonizatsiyasining prognoz qilish ssenariysi ishlab chiqildi (4-rasm). Besh blokli kesishuv tahlili va erta to‘xtatish usulidan foydalanish qo‘llanilgan modelning barqarorligini (RMSE=6.79; R^2=0.75, iteratsiyalar soni n=37–43) tasdiqladi. Prediktorlar ahamiyatini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, tuproqning mexanik tarkibi kolonizatsiya jarayonini belgilaydigan yetakchi omil sifatida namoyon bo‘ldi (Mean Gain = 0.61; $SHAP_M$ = 8.20), aksincha tuproqning sho‘rlanish darajasi, grunt suvlarining sathi va Shennon indeksi modelni shakllantirish uchun ancha kam ulush qo‘shishini (SHAP < 1.5) ko‘rsatdi.

Suksessiya trayektoriyalarining tahlili o‘simlik qoplamining edafo-gidrologik gradientlarga javobi noliniyali xarakterga ega ekanini tasdiqladi. O‘simlik qoplami faolligi, turlar boyligi va xilma-xillik indekslarining eng yuqori qiymatlari edafik va gidrologik omillar o‘zaro kontrast qoplangan ekoton zonalarida qayd etildi. Ana shunday landshaft interferensiyasi uchastkalarida psammofit, galofit va gidromorf elementlarning birgalikda mavjud bo‘lishi natijasida shakllangan lokal «bioxilma-xillik chaqnashlari» aniqlandi, bu esa alternativ suksessiya holatlarining ko‘pligini aks ettiradi.


Dissertatsiyaning **«ODQT ekotizimlarining shakllanishi va rivojlanishi: vaqt dinamikasi, suksessiya va prognozlar»,** deb nomlangan beshinchi bobi ODQT ekotizimlarini shakllantirishda landshaft interferensiyasining ahamiyatiga oid natijalarni bayon etishga bag‘ishlangan.

Ma’lum bo‘ldiki, turli edafik-gidrologik gradientlarning o‘zaro qoplanishi kolonizatsiyaning alternativ suksessiya trayektoriyalari, fitosenozlarning barqarorligi yoki regressiyasi, shuningdek o‘simlik qoplamining fragmentatsiya darajasini belgilaydigan lokal «sharoit tuynuklari»ni shakllantiradi,

Klassifikatsiya ishonchliligi qoniqarli ($\kappa>0.60$) saqlangan TELCC sinflarining makon–vaqt dinamikasi tahlili, 1980–1985, 1990–1995, 2000–2005, 2010–2015 va 2016–2022 yillar oralig‘i hamda 2030 yilgacha bo‘lgan prognoz davrida Orol dengizi sathining pasayishi fonida ekotizimlarning yo‘nalgan transformatsiyaga ega bo‘lganligini ko‘rsatdi. Jumladan, 2010–2015 yy. davrigacha efemer ekotizim maydonining qisqarishi qayd etilib, bu dinamika neo-, post-, qoldiq va yalang ekotizimlari ulushining bir vaqtda ortishi bilan amalga oshgan. Katta Orolning to‘liq qurishidan so‘ng (2016–2022 yy.) qoldiq va postekotizim maydonlarining jadal ortishi kuzatilgan hamda ushbu tendentsiya 2030 yilgacha bo‘lgan prognoz davrida ham saqlanib qoladi.

Ekotizimlarning tahliliga ko‘ra, ODQTda kolonizatsiyaning ilk bosqichlari grunt suvlari yuza joylashgan (GL1<1.0 m) gidromorf sho‘rxokliklarda sodir bo‘lib, bunday

hududlarda shakllanishi kuchsiz bashoratli va qisqa vaqtli bir yillik galofit jamoalari ustunligida ro‘y beradi. O‘tish holatidagi o‘simlik qoplami neoekotizimlar bilan ifodalanadi va ularda landshaft birliklari yaxlitligi va tuzilishining keskin o‘zgarishi tufayli turli ekologik guruhlarga mansub turlarning kirib kelish ehtimoli ortadi. Aynan landshaft interferensiyasi zonalarida psammofit, galofit va potomofit elementlarning qo‘shilishi bilan bog‘liq “bioxilma-xillik chaqnashlari” ko‘zga tashlanadi va bu esa neoekotizimlarda suksessiya yo‘nalishini yagona talqin qilishni qiyinlashtiradi.



4-rasm. 1986–2021 yy. oralig‘ida ODQT hududida turlar kolonizatsiyasi jarayonining faktik va prognoz (gradientli busting) regressiya modeli (MSE=49.64; R^2=0.72) hamda bioxilma-xillik indeksi (Shennon–Viner) asosida ekotizim tiplarining shakllanishini: vertikal chiziqlar kolonizatsiya jarayonidagi «bioxilma-xillik chaqnashlari» intervalini ifodalaydi

Yalang ekotizimlari og‘ir mexanik tarkibli (MC1>45%) va yuqori sho‘rlangan (SS3 > 7 %) tuproqlar bilan bog‘liq bo‘lgan galo-suksessiyaning eng konservativ bosqichi sifatida talqin etilib, bunday hududlarda qum fraktsiyasining dastlabki to‘planishiga xizmat qiluvchi ko‘p yillik supergalofitlar (*Kalidium*, *Halocnemum*, *Halostachys* turlari) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kolonizatsiyaning final bosqichi qumli landshaftlarning mustahkamligi hamda floristik tarkibning Shimoliy-G‘arbiy Qizilqumga yaqinlashuvini aks ettiradigan, qumli substratlar (MC4<10%) va grunt

suvlari chuqur joylashuvi (GL4–GL5) sharoitida barqaror psammofit o‘simlik qoplamini shakllantiradigan postekotizimlar bilan ifodalanadi.

Umuman olganda, ODQT ekotizim turlari o‘rtasidagi o‘tishlar qat’iy chiziqli sxemaga bo‘ysunmasligi, balki progressiv, regressiv, siklik va fragmentar suksessiyalarning qo‘shilishi sifatida amalga oshishi ko‘rsatildi. Kolonizatsiya sur’ati va yo‘nalishini belgilaydigan yetakchi determinant sifatida tuproqning mexanik tarkibi namoyon bo‘ladi, holbuki sho‘rlanish darajasi va grunt suvlari sathining ta’siri asosan barhanlar orasidagi pastqamliklar hamda boshqa interferensiya uchastkalarda saqlanib qoladi. Ushbu hududlar ayni bioxilma-xillik o‘choqlari va suksessiya qayta tuzilishining makon «tugunlari» sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSALAR

1. Orol dengizi qurigan tubi zamonaviy fitosenozlari tarkibi gipsli qumli-qumloq tuproqlarda shakllangan quyrovuqli–shuvoqzor; delyuvial yuzalar va mikropastqamliklarga xos efemerli–psammofit; mustahkam qumloq va qumli akkumulyativ yuzalardagi butali–saksovulzor; qoldiq-ko‘rfaz sho‘rhokliklaridagi galofit–butali; gidromorf sharoitlardagi qirg‘oqbo‘yi–suv va to‘qay–o‘tloqi; loylashgan, kuchli sho‘rlangan pastqamliklarga o‘rnashgan ekstremal bir yillik galofit jamoalari bilan ifodalanadi. Ushbu o‘simlik tiplari yagona izchil suksessiya qatorini hosil qilmaydi, balki muhitning bir nechta mustaqil gradientlari ta’sirini aks ettiruvchi o‘zaro qoplangan ekologik domenlar tizimini shakllantiradi.

2. O‘simlik qoplamining tuzilishi suksessiya yo‘nalishlarining mozaik tarmog‘ini shakllantirish va yagona klimaks holatining qaror topishiga to‘sqinlik qiladigan, geomorfologik, gidrologik va edafik jarayonlar o‘zaro to‘qnashgan landshaft interferensiyasi effekti bilan belgilanadi.

3. Tuproq gradatsiyalari uyg‘unligi landshaft interferensiyasi zonalarini vujudga keltirgan holatlardagi o‘simlik qoplamining mozaik va ekoton rivojlanish trayektoriyalari yaqqol ko‘rinishdagi “bioxilma-xillik chaqnashlari” bilan amalga oshadi. Ushbu o‘zaro kesishuvchi ekologik domenlar floristik farqlanishning asosiy markazlariga aylanib, suksessiyaning ko‘plab muqobil holatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

4. Barcha omillar orasida o‘simlik qoplamining kolonizatsiya dinamikasini prognozlashda tuproqning mexanik tarkibi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, holbuki sho‘rlanish darajasi va grunt suvlarining sathi suksessiyaning kechki bosqichlarida makon cheklovlarini belgilaydi.

5. Ajratilgan besh turdagi ekotizimlar o‘simlik qoplamining almashinuvini o‘zida aniq aks ettiradi, jumladan, o‘ta beqaror, tasodifiy o‘zlashtirilgan yuzalardan (efemer va yalang ekotizimlar) ancha tartiblangan tizimlarga (neoekotizimlar) o‘tish va so‘ngra barqaror shakllangan (postekotizimlar) biotsenozlarga o‘rnashishni ifodalaydi. Har bir ekotizim bosqichi floristik xilma-xillik xususiyatlari, uning barqarorlik darajasi va makon konfiguratsiyasiga yo‘naltirilgan suksessiya jarayonlarining ixtisoslashgan rejimini belgilaydi.

6. Prognoz baholariga ko‘ra, Orol dengizining qurigan tubida 1980–2025 yillarda kuzatilgan ustuvor bo‘lmagan landshaft tuzilmalaridan nisbatan barqaror o‘simlik qoplamiga ega tuzilmalarga yirik ko‘lamda o‘tish jarayonlari davom etadi. 2022–2030 yillarga mo‘ljallangan prognozlar hudud ekotizimlarining kelajakdagi tuzilishida barqaror qumli va qoldiq-to‘qay jamoalarining roli ortib borishini ko‘rsatdi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

ПОЛВОНОВ ФАРРУХ ИСМОИЛОВИЧ

СТРУКТУРА И ДИНАМИКА РАСТИТЕЛЬНОСТИ ОСУШЕННОГО ДНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ЛАНДШАФТНОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ

03.00.05 – Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2026.2.PhD/B1797.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице (www.botany.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Адилов Беҳзод Абдуллаевич** доктор биологических наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	**Эбель Александр Леонович** доктор биологических наук, профессор
	Таджетдинова Дилором Мнаджатдиновна кандидат биологических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «27» ноября 2026 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M при Институте ботаники АН РУз (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники АН РУз. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники АН РУз (зарегистрировано за №91). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан «10» ноября 2026 года.

(реестр Протокола рассылки №30 от «10» ноября 2026 года).

К.Ш. Тожибаев
Председатель Научного Совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

А.В. Махмудов
Ученый секретарь Научного Совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в условиях климатических изменений и усиления антропогенного воздействия особую остроту приобретают проблемы трансформации природных экосистем аридных регионов. При разработке научно обоснованных подходов к восстановлению и устойчивому управлению дестабилизированными экосистемами принципиально важным становится понимание структуры и динамики растительного покрова, формирующегося в условиях наложения геоморфологических, гидрологических и эдафических процессов. В этом отношении выявление механизмов ландшафтной интерференции, определяющих мозаичность фитоценозов и множественность сукцессионных траекторий, приобретает ключевое научно-практическое значение для оценки устойчивости растительности.

В мировой практике при анализе состояния растительного покрова трансформированных территорий и прогнозировании его дальнейшей динамики особое внимание уделяется вопросам пространственно-временной организации фитоценозов, отражающей характер сукцессионных процессов и структурные изменения природной среды. С этой точки зрения важное значение приобретает выявление особенностей структуры и пространственной дифференциации растительности, формирующейся в условиях резкого изменения ландшафтных и гидроэкологических условий. Осушенное дно Аральского моря (ОДАМ) представляет собой уникальную неотерриторию, где на ограниченном пространстве сочетаются песчаные аккумулятивные поверхности, солончаковые депрессии, остаточные гидроморфные участки и зоны активной эоловой переработки. Такое сочетание контрастных природных условий обусловливает формирование мозаичной структуры растительного покрова и множественности сукцессионных траекторий. В этом отношении выявление закономерностей динамики растительности ОДАМ под влиянием ландшафтной интерференции имеет принципиальное значение для понимания механизмов трансформации экосистем в условиях аридизации климата и разработки научно обоснованных подходов к сохранению и восстановлению растительного покрова.

В настоящее время в Республике Узбекистан особое внимание уделяется вопросам сохранения, восстановления и устойчивого использования экосистем, трансформированных в результате изменения климата и усиления антропогенного воздействия. В данном направлении достигнуты значительные результаты, включая оценку состояния пастбищных ресурсов, расширение масштабов лесовосстановительных работ и разработку мер по снижению негативных последствий усыхания Аральского моря. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2022–2026 годы[1] определены приоритетные задачи, направленные на « … выведение сотрудничества в сфере экологии, предотвращения загрязнения окружающей среды и охраны природы в Центральной Азии на новый этап». Исходя из поставленных задач, в частности,

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

изучение структуры и динамики растительности ОДАМ, выявление механизмов ландшафтной интерференции, а также разработка рекомендаций по снижению экологических рисков, приобретают важное научно-практическое значение.

